

BUDJET-SOLIQ SIYOSATI**Abdusattororov Sunnat**

Termiz davlat universiteti talabasi.

Hojiqulova Feruza

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15670310>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz byudjet-soliq siyosatining mohiyati, maqsad va vazifalarini shuningdek turlari va shakllari bilan tanishamiz.

Kalit sozlar: fiskal ekspansiya, fiskal restriksiya, byudjet – soliqlik siyosati, diskret fiskal siyosat, nodiskret fiskal siyosat.

Kirish. Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi.

Bunday barqarorlashtirishga pul-kredit siyosati vositalari qatori budjet soliqlik siyosati orqali ham erishiladi. Budjet-soliqlik siyosati fiskal siyosat deb ham yuritiladi. Budjet-soliqlik siyosati deganda, noinflatsion YaIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liqlik bandlikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Budjet-soliqlik siyosatining ikki turi farqlanadi: 1.rag'batlantuvchi budjet-soliqlik siyosati (fiskal ekspansiya) - iqtisodiy turg'unlik yoki pasayish davrida qo'llaniladi; 2. cheklovchi budjet-soliqlik siyosati (fiskal restriksiya) - iqtisodiyotda to'liqlik bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda qo'llaniladi. Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi budjet-soliqlik siyosati – fiskal ekspansiya olib boriladi. Ya'ni, davlat qisqa muddatda iqtisodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yoxud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga hal etadi. Agar hukumat davlat sektorini kengaytirmoqchi bo'lsa, davriy pasayishni tugatish uchun o'z xarajatlarini oshirishi, inflyatsiyani cheklash uchun esa soliqlarni oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksincha, budjet-soliqlik siyosati davlat sektorini cheklashga qaratilgan bo'lsa, davriy pasayish sharoitida soliqlarni kamaytiradi, davriy ko'tarilish paytida esa davlat xarajatlarini oshirish maqbul yo'l hisoblanadi. Diskret va nodiskret budjet-soliqlik siyosati. Budjet taqchilligi va ortiqchaligi. Hukumatning bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya sur'atlari va to'lov balansi holatini o'zgartirishga yo'naltirilgan maxsus qarorlarni qabul qilishi natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig'ini maqsadli o'zgartirilishi diskret budjet-soliqlik siyosati deyiladi. Diskret budjet-soliqlik siyosati yuritilganda iqtisodiy pasayish davrida yalpi talabni rag'batlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirilishi va soliqlarni kamaytirilishi natijasida davlat budjeti kamomadi yuzaga keltiriladi. O'z navbatida davriy ko'tarilish paytida budjet ortiqchaligi yuzaga keltiriladi. Nodiskret budjet-soliqlik siyosati – davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig'ini avtomatik o'zgartirishni ko'zda tutadi. Nodiskret budjet-soliqlik siyosati o'rnatilgan barqarorlashtirgichlarga asoslanadi.

Rivojlangan davlatlarda o'rnatilgan barqarorlashtirgichlari rolini progressiv soliqlik stavkalari, davlat transfertlari tizimi va foydada ishtirok etish tizimi o'ynaydi. Nodiskret budjet-soliqlik siyosati davriy tebranishlarni yumshatish uchun hukumatning bevosita aralashuvini talab etmaydi. Davriy pasayish sharoitida daromadlar pasayishi tufayli soliqlik stavkalari pasayadi. Bu esa yalpi talabning oshishiga, ishlab chiqarishni kengaytirishga rag'batni yuzaga kelishiga olib keladi.

Shuningdek pasayish davrida davlat transfertlari, jumladan ishsizlik nafaqasi to'lovlari miqdori oshadi. Bu holat ham yalpi talabni oshirib, yalpi taklif hajmini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat budjeti kamomadini moliyalashtirishda quyidagi budjet-soliq siyosati usullaridan foydalaniladi: 1. Pul-kredit emissiyasi; 2. Davlat zayomlarini chiqarish; 3. Davlat budjetiga soliq tushumlarini ko'paytirish; 4. Xususiyashtirishdan tushgan mablag'lar hisobiga moliyalashtirish.

Davlat budjeti kamomadi pul emissiya qilish orqali qoplanganda muomalada pul massasining ko'payishi inflyatsiyaga olib keladi. Inflyatsiya darajasi oshganda Oliver-Tanzi samarasi paydo bo'ladi, ya'ni soliq to'lovchilar tomonidan davlatga to'laydigan soliqlar to'lovini atayin kechiktirish hollari yuzaga keladi. Bu esa davlat budjeti kamomadi oshishiga olib keladi.

Budjet taqchilligi tufayli davlat xususiy ishlab chiqaruvchilardan tovarlar va xizmatlar sotib olsa-yu, lekin to'lovlarni kechiktirsa, xususiy ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlari narxlarini oldindan oshirib qo'yishadi. Bu esa inflyatsiyaning oshishiga olib keladi. Agar davlat budjeti taqchilligi davlat zayomlarini chiqarish orqali moliyalashtirilsa, ular sotilishi natijasida pulga talab oshadi. Bu esa o'z navbatida foiz stavkasini ko'tarilishiga olib kelishi mumkin.

Oqibatda investitsiya xarajatlari, sof eksport hajmi va qisman iste'mol xarajatlari kamayadi. Pirovardida siqib chiqarish samarasi ro'y beradi va u budjet-soliq siyosatining rag'batlantiruvchi samarasini zaiflashtirib qo'yadi. Budjet taqchilligini moliyalashtirishning bu usuli noinflyatsion usul hisoblansada, inflyatsiya xavfini ma'lum muddatga kechiktiradi xolos.

Chunki muddati o'tgan zayomlarni sotib olish bilan davlat muomaladagi pul massasini ko'paytiradi. Bu esa o'z navbatida, narxlar darajasining ko'tarishiga sabab bo'ladi.

Davlat zayomlari – budjetga pul to'plash maqsadida davlat nomidan sotish uchun chiqariladigan, davlatning qarzdorligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz. Qarzni qoplash muddatlariga ko'ra qisqa muddatli (1 yil), o'rta muddatli (2-5 yil) va uzoq muddatli (5 va undan ortiq yillik) davlat zayomlarilari bo'ladi. Daromadliligiga qarab foizli va yutuqli, tarqatilish joyiga qarab mamlakatning ichki va xorijiy davlatlarga kredit tarzida beriladigan tashqi zayomlar mavjud. Soliq tushumlarini ko'paytirish budjet taqchilligini moliyalashtirishning uchinchi yo'li bo'lib, u uzoq muddat talab etadigan soliq islohoti o'tkazilishini talab etadi. Bu islohotlar soliq bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini kamaytirish, soliq yukini ishlab chiqaruvchilardan ko'proq mulk egalari va mulkdan foydalanuvchilar zimmasiga o'tkazish orqali soliqlar tushumini ko'paytirishni ko'zda tutadi. Soliq stavkasi va soliq tushumlari o'rtasidagi bog'liqlik amerikalik iqtisodchi Artur Laffer tomonidan tadqiq etilgan. A.Laffer konsepsiyasiga binoan, davlat budjet daromadlarini ko'paytirish maqsadida hukumat tomonidan soliq stavkalarining ko'tarilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamining oshishiga va soliq tushumlarini kamayishiga olib kelishi mumkin. A.Laffer o'zining 1974-yilda taklif etgan Laffer egri chizig'i bilan mashhurdir.

Iqtisodiyotda Laffer egri chizig'i soliq stavkalari va davlat soliq tushumlarining darajalari o'rtasidagi nazariy bog'lanishni ko'rsatadi. Budjet-soliq siyosatini amalga oshirishda soliq stavkasining optimal darajasini qo'llashga harakat qilinadi. Soliq stavkasining optimal darajasi soliq tushumlarining maksimal darajasini ta'minlaydigan soliq me'yorida.

O'zbekiston Respublikasida budjet-soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari; Mustaqillikning dastlabki yillaridagi budjet taqchilligining yuqori darajasi (1992 yilda 12%) sharoitida olib borilgan izchil budjet-soliq siyosati natijasida davlat budjeti taqchilligi pasaytirildi va 2003, 2004-yillarda YaIMga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi. Bu umume'tirof etilgan 3 foizli me'yordan ancha past ko'rsatkichdir.

Budjet taqchilligi asosan noinflyatsion usullar bilan, ya'ni davlat obligatsiyalari chiqarish hamda xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hisobiga moliyalashtirildi. Mamlakatimizda 2000-2004 yillar davomida davlat budjeti taqchilligini 1,0 foizdan 0,4 foiz darajasiga qadar pasaytirishga, 2005-yildan boshlab esa davlat budjeti taqchilligiga barham berib, 2008-yilga kelib davlat budjeti profitsitini 1,5 foizga qadar oshirishga erishildi. Keyingi yillarda ham mazkur jarayonlar davom etib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishga qaramasdan, budjet profitsitini saqlab qolishga erishildi. Ammo, 2019-yildan boshlab O'zbekistonda defitsitli budjet shakllanib kelmoqda. 2020-yildan boshlab budjet defitsiti bo'yicha mo'ljal olindi, ammo ushbu mo'ljaldan defitsitning haqiqiy holati ortib ketmoqda.

Jumladan, 2023-yilda mo'ljal 3,0 etib belgilangan edi, ammo yil yakunida 5,5 foizni tashkil etdi. 2023-yil 15-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Unda deputatlar konsolidatsiyalangan budjet taqchilligi limitini YaIMga nisbatan 3 foizdan 5,5 foizgacha oshirildi. Respublikamizda o'tkazilayotgan budjet-soliq siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab turish, ustivor tarmoqlarni investitsiyalash, ta'lim sohasini jadal rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadlariga qaratilib kelinmoqda. Mamlakatimizda davlat budjeti daromadlari 2022-yilda 202 trln. so'm bo'lib, 2021-yilga nisbatan 37,2 trln. so'mga yoki 22,6 foizga oshdi. 2022-yili davlat budjeti daromadlarining YaIMdagi ulushi 22,7 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan solishtirilganda 0,3 foizga va 2020 yilga nisbatan 0,6 foizga oshdi. 2022-yilda Davlat budjeti tarkibidagi Soliq qo'mitasi ma'murchiligidagi tushumlar 148,4 trln. so'mni (jami Davlat budjeti daromadlariga nisbatan 73,4 foiz), Bojxona qo'mitasi bo'yicha tushumlar 46 trln. so'mni (22,8 foiz) hamda boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar 7,6 trln. so'mni (3,8 foiz) tashkil qildi. 2022-yilda 2021-yilga nisbatan bevosita soliqlar, resurs to'lovlari hamda mol mulk solig'ining Davlat budjeti daromadlaridagi ulushi kamaygan bo'lsa, bilvosita soliqlar hamda boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlarning ulushi oshdi.

Qisqacha xulosalar; Budjet-soliq siyosati (fiskal siyosat) maqsadi iqtisodiy o'sish, narxlarning barqaror darajasi, to'liq bandlik va to'lov balansi barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Bu maqsadlarga erishish uchun davlat xarajatlari va soliqlar bilan manipulyasiya qilinadi.

Budjet-soliq siyosati cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi turlarga bo'linadi.

Rag'batlantiruvchi budjet-soliq siyosati iqtisodiyotning pasayish davrida olib borilsa, cheklovchi budjet-soliq siyosati iqtisodiyotda haddan ziyod talab tufayli inflatsiya paydo bo'lgan sharoitda olib boriladi. Budjet-soliq siyosati tadbirlari qisqa va uzoq muddatda multiplikator samarasi ta'siri ostida bo'ladi. Davlat xarajatlari multiplikatori iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, chegaraviy soliq stavkasi hamda iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan teskari bog'liqlikka ega. Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorini bir xil miqdorga oshirilishi daromadlar hajmini ham shuncha miqdorga oshirilishiga olib keladi. Bu holat balanslashgan budjet multiplikatori bilan izohlanadi. Iqtisodiy pasayish paytida budjetning davriy taqchilligi, diskret budjet-soliq siyosati natijasida esa tarkibiy taqchilligi yuzaga keladi. Budjet taqchilligini moliyalashtirishning maqbul yo'li davlat qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni sotish hisobiga qarz olishdir. Respublikamizda o'tkazilayotgan budjet-soliq siyosati iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish, barqaror iqtisodiy o'sishga shart-sharoit yaratish, yalpi talabni oshirish kabi maqsadlarga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Soliyev, A.S., Tadjibayeva, Z.Sh. (2021). Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti – <https://www.mf.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy sayti – <https://soliq.uz>
4. Musayev, M.M. (2020). Iqtisodiy siyosat nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi (oxirgi tahriri, 2024-yil). <https://lex.uz>
6. IMF (2023). Fiscal Monitor: Public Investment for the Future. Washington, D.C.: International Monetary Fund. <https://www.imf.org>
7. OECD (2022). Tax Policy Reforms: OECD and Selected Partner Economies. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/tax>